

## MIFOLOGIK ELEMENTLARNING AFSONALARDA BADIY IFODASI

**Doniyorova Zebo Abdujabborovna,**  
Toshkent amaliy fanlar universiteti, magistr

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada afsonalarda uchraydigan mifologik elementlarning badiiy ifodalanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Afsonalar tarkibida mavjud bo'lgan mifologik obrazlar, ramziy motivlar va g'ayritabiiy voqealar tizimi orqali qadimgi insonning dunyoqarashi, e'tiqodi hamda estetik qarashlari yoritiladi. Tadqiqot davomida mifologik tafakkurning afsona janrida qanday shakllanib, badiiy talqin etilgani misollar asosida ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** mif, mifologik element, afsona, folklor, mifologik obraz, motiv, ramz, e'tiqod, badiiy ifoda, g'ayritabiiylik.

**Аннотация.** В данной статье анализируются особенности художественного выражения мифологических элементов в легендах. Через мифологические образы, символические мотивы и систему сверхъестественных событий, представленных в легендах, раскрываются мировоззрение, верования и эстетические взгляды древнего человека. В ходе исследования на основе примеров показано, каким образом мифологическое мышление формируется и получает художественную интерпретацию в жанре легенд.

**Ключевые слова:** миф, мифологический элемент, легенда, фольклор, мифологический образ, мотив, символ, верование, художественное выражение, сверхъестественное.

**Annotation.** This article analyzes the features of the artistic expression of mythological elements in legends. Through mythological images, symbolic motifs, and systems of supernatural events found in legends, the worldview, beliefs, and aesthetic perceptions of ancient people are revealed. The study demonstrates, through examples, how mythological thinking is formed and artistically interpreted within the genre of legends.

**Keywords:** myth, mythological element, legend, folklore, mythological image, motif, symbol, belief, artistic expression, supernatural.

**Kirish va dolzarbli.** Mifologik tafakkur insoniyat tafakkurining eng qadimgi shakllaridan biri sifatida xalqning dunyoqarashi, e'tiqodi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu tafakkur turi dastlab tabiat hodisalarini tushuntirish, borliq sirlarini anglash va insonning o'z o'rnini belgilash ehtiyoji asosida shakllangan. Aynan shu sababli mifologik tasavvurlar xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lgan afsonalarda o'zining yorqin ifodasini topgan.

Afsonalar qadimgi inson tafakkurining mahsuli bo'lib, ularda borliq haqidagi dastlabki qarashlar, g'ayritabiiy hodisalarga bo'lgan ishonch va ramziy tafakkur mujassamlashgan. Bu janrda mifologik elementlar — obrazlar, motivlar va syujet unsurlari orqali tabiat va jamiyat hodisalari badiiy talqin qilinadi. Shu jihatdan afsonalarni o'rganish nafaqat folklorshunoslik, balki adabiyotshunoslik va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi globallashuv sharoitida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni asrab-avaylash va uni ilmiy asosda o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Afsonalarda aks etgan mifologik elementlarni tahlil qilish orqali qadimgi insonning dunyoqarashi, e'tiqod tizimi va estetik qarashlarini chuqurroq anglash mumkin.

Mifologik elementlarning badiiy ifodasi masalasini o'rganish zamonaviy adabiyotshunoslikda muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, u xalq og'zaki ijodining ichki tuzilishini, obrazlar tizimini hamda badiiy tafakkur rivojini aniqlashga xizmat qiladi. Shu bois mazkur mavzu ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

**Metodlar va o'rganilish darajasi.** Mazkur tadqiqotda afsonalarda mifologik elementlarning badiiy ifodasini yoritishda bir qator ilmiy tadqiqot usullariga tayanildi. Asosiy yondashuv sifatida matnlarni chuqur o'rganishga yo'naltirilgan tahliliy metod qo'llanildi. Ushbu metod orqali afsonalardagi mifologik obrazlar, ramziy tasvirlar va g'ayritabiiy motivlarning badiiy mazmuni ochib berildi.

Mavzuning o'rganilish darajasi shuni ko'rsatadiki, afsonalar va mifologik tafakkur jahon ilmida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Xorijiy tadqiqotlarda u ko'proq inson tafakkurining qadimiy shakli va badiiy ijod manbai sifatida talqin qilinadi.

O'zbek folklorshunosligida ham afsonalar va ularning mifologik qatlamlari bo'yicha muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq afsonalarda mifologik elementlarning badiiy tizim sifatidagi roli, ularning obraz va motivlar bilan bog'liqligi masalasi hali ham chuqur va keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi.

**Tadqiqot natijalari.** O'zbek xalq og'zaki ijodi doirasida shakllangan afsonalar — xalqning tarixiy xotirasi, diniy-mifologik qarashlari va dunyoqarashi bilan uzviy bog'liq bo'lgan janr hisoblanadi. Bu janrda mavjud bo'lgan mifologik elementlar turli badiiy shakllarda ifodalanib, insoniyat tafakkurining eng qadimgi qatlamlari bilan bog'liq obrazlar va tushunchalarni aks ettiradi. Afsonalarda yer, osmon, suv, tog', hayvonlar, sehrlilik predmetlar, tabiat hodisalari va boshqa ko'plab unsurlar mifologik timsollar orqali badiiy talqinga ega bo'ladi.

Afsonalarda mifologik obrazlar o'ziga xos badiiy ifodaga ega. Ular ramziy ma'no kasb etib, insoniy tushunchalar, axloqiy qarashlar va qadriyatlarini ifodalovchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mifologik elementlar — bu qadimgi miflar (afsonaviy hikoyalar) asosida shakllangan tasavvurlar, obrazlar, hodisalar va ramzlar bo'lib, ular odatda inson tafakkurining dastlabki bosqichlarida dunyoni tushuntirish, hayot sirlarini anglash va tabiat hodisalariga ma'no berish maqsadida yaratilgan.

Afsonalarda mifologik elementlar nafaqat obraz sifatida, balki kompozitsiyaning asosiy strukturaviy qismlarini tashkil etadi. Qahramonning sehrlilik olamga kirishi, sinovlardan o'tishi va ruhiy yuksalishiga xizmat qiluvchi muhit aynan mifologik tasavvurlar asosida quriladi.

Afsonalarda juda ko'p sinonim nomlar o'zaro parallellikda qo'llanilishi kuzatiladi. Masalan, Ajdarhoqush – uchar ilon – tanin [1; 57-b.] kabi. Bu so'zlarning shakli har xil bo'lsa-da, barisi “ajdaho” ma'nosini anglatib keladi. Bunday sinonim va ma'nodosh so'zlar afsonalar tilining badiiy qatlamini boyitadi, ularning mazmuniy ifoda

imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa tinglovchining tasavvurini kengaytirish, obrazli tafakkurni kuchaytirish va afsona mazmunini teranroq idrok etish imkonini beradi.

Afsonalarning badiiy qurilishida an'anaviy uslubiy shakllar alohida o'rin egallaydi va ular o'ziga xos estetik, didaktik va funksional vazifalarni bajaradi. Bunday uslubiy vositalar nafaqat tinglovchilarning diqqatini jalb etish, balki ularni ruhlantirish, afsonadagi voqea-hodisalarni chuqur his etishga yo'naltirish vazifasini ham bajaradi.

Afsona syujetining ichki mantiqiy tuzilmasi, undagi voqealarning ketma-ketligi, qahramonlarning harakatdagi rivoji aynan shu uslubiy shakllar orqali badiiy yaxlitlik kasb etadi. Ayniqsa, afsonalarda uchraydigan "bir kun kelib...", "rivoyat qilishlaricha...", "shundan keyin..." kabi barqaror ifodalar matnga epik ohang bag'ishlab, tinglovchida davomiylik va rivoyat tarzidagi taassurot uyg'otadi.

Bunday barqaror uslubiy qoliplar xalq og'zaki ijodining ko'hna qatlamlaridan nishona bo'lib, ular orqali asrlar davomida shakllangan badiiy tafakkur an'analari davom etib keladi. Ular afsonalarning boshqa epik janrlar — doston, ertak, rivoyat bilan bo'lgan ichki aloqasini ham mustahkamlab turadi. Shu boisdan, afsonalar tarkibida uchraydigan an'anaviy uslubiy shakllar ularning janriy xususiyatlarini belgilovchi asosiy belgilar sifatida namoyon bo'ladi.

Afsonalarda qo'llaniladigan bu kabi shakllar matnga poetik ruh, obrazlilik va badiiy tasvir kuchi olib kiradi. Shu jihatdan, afsonaning estetik ta'sirchanligi ham aynan ana shu shakllar orqali kuchayadi. O'z navbatida, bu vositalar xalq dunyoqarashi, axloqiy mezonlari, tarixiy xotirasi va diniy-mifologik tasavvurlarining ham badiiy ifodasi hisoblanadi.

"Shirin qiz" afsonasida oy ma'grurlanib ketganligidan xijolatda qoladi. U osmonga chiqib ketib, uyalganidan osmonda qolib ketadi. Bu afsonada manmanlik illati engil kulgi ostiga olingan. Unda qarshilantirish san'ati muhim o'rin tutgan va u orqali syujet voqealari harakatlantirilgan. Shirin qizning go'zalligi, aqlli va odobli qiz sifatida tasvirlanishi orqali xalq orzu-umidlarining timsoli sifatida gavdalanadi. Biroq uning o'zini maqtab, boshqa hech bir qiz menga teng emas degan da'vosi manmanlik sifatida talqin qilinadi. Oqibatda, u nafaqat jamiyatdan, balki insoniy munosabatlardan ham uziladi. Afsonada oy ramzi orqali Shirin qizning osmonga chiqib ketishi — bu uning jamiyatdan yiroqlashuvi, yolg'izlikka mahkum bo'lishi bilan bog'liq ramziy ma'noni bildiradi[2; 110-111 b.].

Bu yerda qarshilantirish san'ati orqali Shirin qizning avvalgi kamtarligi va keyingi manmanligi o'rtasidagi ziddiyat yoritiladi. Xalq og'zaki ijodi an'analarga xos tarzda bu afsonada axloqiy xulosa ochiq berilmaydi, balki badiiy obrazlar orqali tinglovchi yoki o'quvchining o'zi fikr yuritishiga turtki beriladi. Shu jihatdan "Shirin qiz" afsonasi nafaqat tarbiyaviy, balki estetik ahamiyatga ham egadir.

Afsonalarda hikoya qilinayotgan voqea-hodisalar aytuvchi va tinglovchi tomonidan "bo'lgan voqea" sifatida qabul qilinadi. Shu bois afsonalarda bayon etilayotgan voqelikning haqiqatga yaqinligi va ishonchliligi uchun voqea-hodisaning bo'lib o'tgan

joyi, vaqti va kimlar bilan bog‘liqligi aniq ko‘rsatilib o‘tiladi. Bu esa afsonaning voqelik hissini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun, afsonalarda ko‘pincha cho‘l, g‘or, quduq, dara, tepalik, qal‘a, tog‘ kabi tabiiy yoki sun‘iy joylar alohida o‘rin tutadi. Ular syujetda voqealarning makon ko‘lamini belgilash bilan birga, ko‘pincha sirli va g‘oyat tushunarsiz makon timsoli vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, toponimik afsonalarda ana shu joy nomlari aniq ko‘rsatiladi, bu esa hikoya etilgan voqeaning ancha real va tarixiy ekanligini anglatadi.

Afsonalarda vaqt tushunchasi ham o‘ziga xos an‘anaviy uslubda ifoda topgan. Afsonalarda voqelikning aniq vaqti ko‘pincha belgisiz va noaniq bo‘lib, bu hol afsonaning umumiy milliy va universalligiga xizmat qiladi. Misol uchun, “Qadim zamonda...”, “O‘tgan zamonda...”, “Kunlardan bir kun...” kabi iboralar afsonada voqea yuz bergan vaqtni bildirishda keng qo‘llaniladi. Bu iboralar voqea va voqelikni aniq sanalarga bog‘lamasdan, uni umumiy va bejo‘yon muhitga joylashtirishga xizmat qiladi. Biroq, tarixiy shaxslar yoki voqealar bilan bog‘liq afsonalarda, ayrim hollarda, voqeaning taxminan qaysi asr yoki davrda yuz berganligi biladi va bu afsonaning tarixiy maskanlarga bog‘lanishiga xizmat qiladi. Lekin bunday afsonalarda ham vaqt talqini ko‘proq taxminan va ramziy shaklda qoladi.

Bundan tashqari, afsonalarda vaqt tushunchasi ba‘zan badiiy-hissiy tafovutlar orqali ifodalanadi. Misol uchun, “Ming otnning qo‘lga tushirilishi” afsonasida “Devlar hash-pash deguncha, yoshullilar ikki shaftolini eguncha” singari iboralar vaqtning muayyan chegarasini belgilashdan ko‘ra, voqeaning uzoqlik, dramatiklik va epiklik hissini oshirishga qaratilgan. Bu badiiy vaqt va vaqtni ifoda etish uslubi afsonaning poetik tabiatini kuchaytirib, voqealarning ta‘sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Afsonalarning yana bir muhim xususiyati – ularda ma‘lum bir axloqiy yoki hayotga oid xulosalar ilgari surilishi va shu xulosalar aniq misollar, voqealar orqali tasdiqlanishi hisoblanadi. Buni ta‘kidlash uchun afsonalarda ko‘pincha savol qo‘yiladi va voqealar rivojlanishi davomida shu savolga javob izlanadi. Nihoyatda afsonaning yechim qismida bu savolga qat‘iy javob yoki xulosa beriladi. Masalan, “Shuning uchun”, “shu sababdan”, “shundan beri” kabi ko‘makchi so‘zlar, iboralar voqelikni izohlash va ta‘kidlash uchun qo‘llaniladi. Bunday ta‘kidlar afsonaning axloqiy va badiiy mohiyatini yaxshiroq anglashga xizmat qiladi.

Afsonalarda muayyan epik uslub va kompozitsiya shakli shakllangan bo‘lib, u o‘zgacha xususiyatlari va badiiy ta‘siri bilan xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan farq qiladi. Afsonalardagi bunday uslubiy va syujet usullari ularni nafaqat o‘tmish davr odamlarining dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va ijodiy dunyosiya oyidnlik kiritadigan, balki ularning estetik qadriyatlarini ham ifodalayotgan milliy-ma‘naviy yodgorlik darajasiga ko‘taruvchi muhim namunalar sifatida namoyon etadi.

Din ahli haqida yaratilgan afsonalar Alloh taoloni tanituvchi, Uning yo‘lida xizmat qilganlar esa yuksaklikka erishishi muqarrarligini anglatuvchi muhim badiiy vositalardan

biridir. Ular bandalarning Allohga mehr-muhabbatini va ishonch-e'tiqodini mustahkamlaydi.

Avliyolar obrazi aks ettirilgan afsonalarning g'oyaviy manbalari Qur'oni karim va hadislardan iborat bo'lgani uchun ham ular odamlarni ezgulik sari yetaklaydi.

Bunday afsonalarda uchraydigan avliyolar obrazi ikki xil bo'ladi:

1. **Payg'ambar-avliyolar obrazi.** Bunga "Hazrati Dovud g'ori", "Nuh alayhissalom afsonasi", "Payg'ambarlar oroli" kabi afsonalar misol bo'la oladi.
2. **Homiy avliyolar obrazi ishtirok etgan afsonalar.** Bunga "Chopsoldi buva", "Shohimardon mozori" kabi afsonalarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

Bu afsonalarning aksariyati tarixiy va toponimik afsonalardir. Masalan, "Hazrati Dovud g'ori" afsonasi nomlanishidanoq sezilib turibdiki, u g'orning, ya'ni ma'lum bir toponimning kelib chiqishi haqida yaratilgan. Ushbu afsona Samarqand viloyatining Oqsay qishlog'ida joylashgan Hazrati Dovud g'ori haqida so'zlaydi. Aytishlaricha, payg'ambar Dovud g'ayridinlardan qochib, tog'dan o'z qo'li bilan yo'l ochib, g'or yasab, o'shaga kirib ketgan va ko'zdan g'oyib bo'lgan. Shu sababli, afsonaga ko'ra, g'orning kengligi taxminan 2 metr, bo'yi esa 12 metr atrofida ekan. G'orning og'zidagi katta harsang toshlardagi chuqurchalar esa Hazrati Dovudning izlari sifatida talqin qilinadi [3; 182-b.].

Bu kabi afsonalar topografik manzillar va tarixiy shaxslarning hayoti bilan bog'liq bo'lib, ular orqali xalq o'zining madaniy xotirasi va tarixiy ongini shakllantiradi. Toponimik afsonalar, ayniqsa, ma'lum bir joy nomining kelib chiqishi va uning tarixiy-madaniy ahamiyatini tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali joyning qadimiyligi, uning qahramonlari va o'tmishdagi voqealari hayotga qaytadi va avlodlar ongida saqlanib qoladi.

Biografik afsonalarda esa ma'lum tarixiy shaxslar hayoti va faoliyati uydirma va badiiy vositalar yordamida bayon qilinadi. Bu turdagi afsonalarda qahramonlarning faqat ijobiy fazilatlari ko'rsatilib, ularning insoniy qiyofasi idealizatsiyalanadi. Shu tariqa, tarixiy shaxslarning hayoti afsonaviy qahramon obrazida talqin etilib, ularning fazilatlari yanada yuksaltiriladi. Masalan, payg'ambarlar va aziz avliyolar haqidagi afsonalar shu yo'l bilan shakllangan bo'lib, ular xalq tomonidan buyuk ruhiy qahramonlar sifatida qabul qilinadi.

Bunday afsonalar xalq xotirasi va madaniyatining muhim qismi bo'lib, ularning yordamida tarixiy va diniy qadriyatlar avloddan-avlodga yetkaziladi. Shu bilan birga, ular xalqning o'zligini anglash, tarixiy merosga hurmat bilan qarash va milliy birlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Afsonalar qahramonining idealizatsiyasi orqali ularning fazilatlari yosh avlod uchun namuna bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, ular jamiyatning axloqiy-ruhiy qadriyatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

Aslida payg'ambarlar, aziz avliyolar mo'jizalari talqin qilingan asarlar afsona deyilsa-da, ularda ko'proq rivoyatga yaqin xususiyatlar uchraydi. Chunki afsona deganda

ko'pincha xayoliy-u faraziy asosga ega bo'lgan, hayotda chindan bo'lmagan, lekin xalq tasavvurida ma'naviy haqiqat darajasiga ko'tarilgan voqelik tushuniladi. Rivoyatlarda esa real tarixiy shaxslar yoki voqealar asosida hikoya qilinadigan, diniy manbalar bilan uyg'unlikda talqin etiladigan voqealar yetakchi o'rin tutadi.

Payg'ambar va aziz avliyolar haqidagi afsonalarda aynan ana shu ikki unurning — diniy haqiqat va badiiy talqinning sintezi yuz beradi. Bunday afsonalarda asosiy e'tibor o'sha tarixiy shaxslarning g'oyat ezgu fazilatlariga, ularning Alloh yo'lida qilgan xizmatlariga, sabr-toqatiga, mo'jizakorligiga qaratiladi. Bu esa o'quvchi yoki tinglovchini imonga, sabrga, halollikka undaydi, uning qalbida ilohiy muhabbat va sadoqatni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bunday afsonalarda mavjud bo'lgan mo'jizalar — masalan, tog' ochilishi, daryoning yorilishi, osmondan non tushishi, jismoniy imkoniyatlarning cheksizligi kabi syujet detallar — xalqning diniy-tasavvuriy dunyoqarashini ifoda etadi. Bu mo'jizalar, albatta, hayotda sodir bo'lgan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan oddiy holatlar emas, balki ularning ramziy va ruhiy ma'nosiga urg'u beriladi.

Shuningdek, bu kabi afsonalarda tasvirlangan voqealar va qahramonlar orqali xalq o'zining axloqiy-ruhiy me'yorlarini mustahkamlaydi. Payg'ambarlar va avliyolar orqali ilgari surilayotgan axloqiy qadriyatlar — adolat, sabr, mehr, rostgo'ylik kabi tamoyillar xalqning umumiy ma'naviy ko'lamini belgilab beradi.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, bu turdagi afsonalar faqat diniy-didaktik maqsadga xizmat qilib qolmasdan, shu bilan birga, xalq og'zaki ijodining badiiy boyligini, obraz yaratish san'atining yuksak namunalarini ham ifodalaydi. Xalq bu obrazlarni mukammal, ideal qahramonlar sifatida tasvirlash orqali o'z orzu-umidlarini, ezgu intilishlarini timsollashtiradi. Shunday qilib, bu turdagi afsonalar nafaqat diniy-ma'naviy, balki badiiy-estetik jihatdan ham ahamiyatli bo'lib, o'zbek og'zaki folklorining muhim janrlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Mifologik elementlarning afsonalarda badiiy ifodalanishi xalqning qadimiy e'tiqod va dunyoqarashini anglashda muhim manba hisoblanadi. Ushbu elementlar badiiy timsollar, ramziy hodisalar va syujet strukturalari orqali xalq xotirasining chuqur qatlamlarini ochib beradi. Shu bois, afsonalarning mifologik qatlamini o'rganish, o'zbek xalqining ruhiy-madaniy tarixini to'liq anglashga zamin yaratadi.

**Xulosalar.** Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'zbek xalq afsonalarida mifologik elementlar xalqning qadimiy dunyoqarashi, e'tiqodi va ma'naviy-axloqiy tasavvurlarini badiiy shaklda ifodalovchi muhim qatlam ekanligi aniqlandi. Afsonalarda uchraydigan mifologik obrazlar, motivlar va ramzlar insoniyat tafakkurining eng ilk bosqichlariga borib taqalib, borliqni tushuntirishga qaratilgan qadimiy qarashlarning mahsuli sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, afsonalarda mifologik elementlar nafaqat obraz darajasida, balki syujet va kompozitsiyaning asosiy qurilish materiali sifatida ham faol

ishtirok etadi. Voqealarning g'ayritabiiy xarakteri, makon va zamonning noaniqligi hamda ramziy ifodalar afsonaning epik-poetik tabiatini belgilovchi muhim omillardir.

Shuningdek, afsonalarda qo'llaniladigan an'anaviy uslubiy shakllar — barqaror ifodalar, takrorlar va qarshilantirish usullari badiiy ta'sirchanlikni kuchaytirib, asarning estetik va tarbiyaviy ahamiyatini oshiradi. Bu vositalar orqali xalqning axloqiy qarashlari va hayotiy xulosalari obrazli tarzda ifodalanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Боболардан қолган нақллар. (Афсона, ривоят, ирим-сирим ва халқ тақвими). Тўплаб, нашрга тайёрловчилар, сўз боши ва изоҳлар муаллифи: М.Жўраев, У.Сатторов. – Тошкент: Фан, 1998. – Б.57.
2. Ўзбек халқ асотирлари. Жаҳон халқлари эртақлари. Ўн жилдлик. 3-жилд. Ўзбек асотирлари, ҳикматлари, ривоятлари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.110-111.
3. Ўзбек халқ асотирлари. Жаҳон халқлари эртақлари. Ўн жилдлик. 3-жилд. Ўзбек асотирлари, ҳикматлари, ривоятлари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.182.

